

**NUTQ NUQSONIGA EGA BOLALARNI TARBİYALASHDA XALQ OG'ZAKI
IJODIYOTI NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Saparov.A

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining assistent o'qituvchisi .

Тел: 90 714 31 21

P.S.Jur'atbekovna

*NDPI Maktabgacha ta'lim fakulteti Defektologiya logopediya yo'nalishi 4- kurs
talabasi.*

Тел: 97 650 27 47

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nutq nuqsoniga ega bolalarni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining o'rni, xalq og'zaki ijodi namunalarining ahamiyati, bolalar nutqini rivojlantirishda ertaklarning o'rni haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *xalq og'zaki ijodi, ertak, bolalar tarbiyasi, xalq og'zaki ijodi namunalari ertak terapiya.*

Bizning o'zbek xalqimiz qadimdan mehnatkash, savodxon xalq bo'lgan. Farzandlarni mehnatkash, savodxon bo'lishida ularni tarbiyasiga juda katta e'tibor bergan. Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda asosan xalq og'zaki ijodi bilan ta'sir qilish yo'lidan borgan. Boy va rang-barang xalq ijodi namunalari yozma adabiyotning maydonga kelishi va rivojlanishida boy manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalarni tarbiyalash va kamol toptirishda xalq og'zaki ijodining o'rni beqiyos. Xalq og'zaki ijodining kichik shakllari bola eshitadigan birinchi san'at asarlaridir: bolalar qofiyalarining so'zlarini va ularning ritmini tinglab sekin yuradi, raqsga tushadi va og'zaki matnning tezligiga qarab harakat qiladi. Xalq og'zaki ijodi o'zining rang-barangligi, yuksak g'oyalar bilan yo'g'rilganligi, xalq turmushi, mehnati xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog'liq. Bolalar folklori ko'pincha kattalar tomonidan ijro etiladi (alla), ba'zi hollarda bolalar o'z o'yinchoqlari asosida o'zlari ham alla, qo'shiq va ovutmachoqlar to'qiydilar. Bularning barchasi bir bo'lib faqat yaxshi tarbiyani targ'ib qiladi. Bolalar xalq og'zaki ijodining pedagogika bilan bog'lanishi alladan boshlanadi. Xalq og'zaki ijodining eng rivojlangan janrlaridan biri bu-alladir. Alla bolalar beshikdaligida, hali tili chiqmasdan oq aytiladi. Alladan yaxshi tarbiya ko'rgan bola jamoat orasida, to'y-tomoshalarda ota-onaning obro'yi, uning shuhrati sifatida ta'riflanadi. Bola yoqimli qo'shiqlar ohangini oson o'rganib oladi. Alla bolaga zavq bag'ishlaydi, unga ma'naviy-tarbiyaviy ozuqa beradi.

Maqollar

O'zbek xalq ijodida maqollarning o'ziga xos o'rni bor. Bolalar ta'lim-tarbiyasida maqollarning o'rni katta. Maqollar ona-vatanni sevishtga, uning har qarich yeri uchun kurashga "Yurt qo'risang o'zarsan, qo'rimasang to'zarsan", kasb-hunar egasi

bo'lishga "Yigit kishiga yetmish hunar ham oz", ahil-inoq bo'lib mehnat qilishga "Ko'pchilik qo'lida unum ko'p", to'g'ri so'z va halol kishilar bo'lib kamol topishiga "Egri ozadi, to'g'ri o'zadi", yaxshi va oliyjanob xulq egasi bo'lishga "Odob bozorda sotilmas".

Topishmoqlar

Xalq og'zaki ijodiyotida topishmoqlar bolalarni o'ylashga, topqirlikka o'rgatuvchi janrlardan biri hisoblanadi. Har bir topishmoq zamirida "kim?", "nima?" so'roqlariga yashirin javob yotadi. Har bir topishmoq uni yaratgan xalqning urf-odatini, o'ziga xos rasm-rusmlari bilan bog'liq holda bo'lib, bolalar orasida keng tarqalgan.

Tez aytishlar

Tez aytishlar kichik yoshdagi bolalarda og'zaki nutq mashqi bo'lib, bolalarda tovushlarni to'g'ri va ohangdor talaffuz qilish ko'nikmalarini orttiradi. Xalq og'zaki ijodida bu janrga mansub asarlar bolalarni biyron so'zlashga o'rgatish bilan birga, ularga estetik zavq beradi, fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi, xotirasini mustahkamlaydi.

Ertaklar

Ertaklar xalq og'zaki ijodida eng boy va rang-barang janrlardan biri hisoblanadi. Ertaklarning eng muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, dunyoqarashi, urf-odatlarini bilan chambarchas bog'lanishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yo'ldosh bo'lib kelishidir. Ertaklarda xalqning kelajakka bo'lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alabasi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g'oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlangan.

Bizning dono xalqimiz "Ertaklar-yaxshiliklar yetaklar", deb bejiz aytishmagan. Ertak bolalarning ongi va qalbiga ezgu fazilatlarni jo qilishda, ularning ma'naviy olamini boyitishda muhim ahamiyatga ega. Ular yordamida bolalarning xotirasi, diqqati e'tibori va tafakkuri rivojlanadi. Ertaklarni tinglash til va nutqning rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bolalardagi nutqiy kamchiliklarni hikoya va ertaklar eshitish, she'r yodlatish, so'zlarni to'g'ri talaffuz qildirish va turli xil mashqlar bajarish orqali bartaraf etish mumkin. Ertak mazmuni asosida bolalarda ezgu xislatlarni tarbiyalash, insoniy fazilatlarni tarbiyalash, ular o'rtasida o'zaro do'stona munosabatlarni shakllantirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish lozim. Shu jumladan, hayvonlar haqidagi "Tulkining taqsimoti" ertagida ayyorlik va tilyog'lamalik tulki obrazi orqali ifodalangan. "Uch og'a-ini botirlar" ertagi ota nasihati bilan boshlanadi. Botirlar obrazida axloq va odobning yuksak namunasi odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar namoyon bo'ladi. Tarbiyachi tomonidan ertak o'qib berilgach, bolalarni umumiy xulosa chiqarishga undash kerak. "Agar sen uning o'rnida bo'lganingda nima qilgan bo'lar eding?", kabi savollar berib, erkin muloqotga chaqirish ularning faolligini oshirishga yordam beradi. Har bir ertakning o'z g'oyasi bor. "Sholg'om" ertagi bolalarni fikrlashga, voqealarni ketma-ket aytishga undasa, "Kuch birlikda" degan g'oyani anglab yetishini ta'minlasa, "Zumrad va Qimmat" ertagida Zumradning mehnatsevarligi ulug'lanadi. Qimmat esa dangasa, ishyoqmas sifatida gavdalanadi. Ertaklar turli mavzularda bo'ladi. Ular hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli

ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga bo'linadi. Hayvonlar haqidagi ertaklar barcha qiziqadigan fantastik hikoyalardir. Ulardagi asosiy mazmun majoziy, ya'ni ko'chma ma'noga ega. Masalan, ayyorlik va munofiqlik tulki, qonxo'rlik, laqmalik bo'ri orqali ifoda etiladi. «Bo'ri bilan tulki», «Echkining o'ch olishi», «Ochko'z bo'ri», «Ayiqqolvon» kabi ertaklar ana shunday asarlardir. Sehrli ertaklar ham biz sevib va qiziqib o'qiydigan fantastik hikoyalardir. Ularda voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan, asar qahramonlari har narsa qo'lidan keladigan mo'jizakor kimsalar «ur to'qmoq», «ochil dasturxon», «semurg'», «susambil» kabi ertaklaridan iborat. Johillik, ikkiyuzlamachilikni la'natlash, aql-farosatlilik, tadbirkorlik, jasurlik, rahmdillik, ahillik kabi chin insoniy xislatlarni targ'ib qiladi. Xalq ertaklari aqlga ham, yurakka ham faol ta'sir ko'rsatadi: aqlni to'ldiradi, yurakni hissiyotchan qiladi. Barcha inson farzandlarini jasur va intiluvchan, diyonatli, e'tiqodli, aqlli bo'lib voyaga yetishini hohlaydi. Buning uchun esa, uning tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladigan, aqliy salohiyatini o'stiradigan ertaklardan foydalansak bo'ladi.

Hozirgi kunda bolalar nutqini rivojlantirishda ertak terapiyasini o'tkazish samarali usullardan biridir. Ertak terapiyasi bolaning nutqini rivojlantirish uning nutq qobiliyatini yaxshilashning eng samarali va qulay usuli hisoblanadi. Ertak terapiya kontseptsiyasining manbalari L.S.Vigotskiyning asarlarida, D.B.Elkonin, tadqiqot va tajribada, B.Bettelxaym hikoyalarida, Gardner asarlarida, E.Fromma va E.Bernning g'oyalari G.Jung va M.L.fon Franzning masallari va hikoyalarida ertak terapiyasi aks etgan. Pezeshkyan, bolalar submulturasini o'rganish M.Osorinaning asarlarida, Proppa g'oyalarida E.Romanova psixoterapevtik ertaklar va g'oyalarida A.Gnezdilova va A.Zaxarova tajribalarida aks etgan. Bugungi kunda ertak terapiyasi usulidan faol foydalanish tendentsiyalari mavjud, unga tobora ko'proq mutaxassislar murojaat qilishadi: psixologlar, shifokorlar, defektologlar, o'qituvchilar. Ertak terapiyasi vositasida davolash orzu va xayolat tuyg'usi kuchli bo'lganlarga to'g'ri keladi. Ruhiiy yashirin holatlarni, qarama-qarshi vaziyatlarni va ichki o'zgarishlarni tushinishda ijobiy qo'llaniladi. Bu davolash usuli, ayniqsa, yosh bolalarda ijobiy ta'sir kuchiga ega bo'lib, bolalar ertakni tinglash yoxud o'zi ertak aytib, o'zi ham syujetlarni to'qib, ertaklardagi kabi hikoya qilishiga zamin yaratadi. Ertak terapiyasi syujetni mustaqil yaratish davomida bolalarning ichki dunyosini boyitadi, o'zini orzu va xayoloti, his-hajonini anglashi, qiyin vaziyatlardan chiqib ketishni o'rganadi. Ertak terapiyasi bolaga tengdoshlari va kattalar bilan sog'lom shaxslararo munosabatlarni to'liq o'rnatishga imkon beradi.

XULOSA. Bolalarni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining o'rni judayam katta. Xalq og'zaki ijodi orqali bolalarni vatanni sevishga, kattalarni hurmat qilishga, jamoat orasida o'zini tutishga, birdamlikda ish olib borishlikka o'rgatib shu ruhda tarbiyalaymiz. Ertaklar orqali bolaning dunyoqarashini kengayadi, uning hayotga ongli munosabati shakllanadi. Bolalar ertak orqali yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni bir-biridan farqlashni o'rganadi. Bu tushuncha uning ongida bir umrga muhrlanib, voyaga

yetganidan keyin u foydali va ezgu ishlarga odatlanadi. Oilada har bir ona ertaklarni o'z farzandlariga obrazli va qiziqarli tarzda aytib bersa, farzandlari hayoti davomida, yaxshilik, insonparvarlik hamda vatanparvarlik tuyg'usida voyaga yetadi.

ADABIYOTLAR

1. Mamasoli Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
2. Gnezdilov A. V. Puti piligrimov: terapevticheskie skazki. — SPb.: Rech, 2005
3. Zinkevich-Evstigneeva, T.D. Sehr-joduga yo'l. Ertak terapiyasi nazariyasi va amaliyoti / T.D. Zinkevich-Evstigneeva. - Sankt-Peterburg: Zlatoust, 1998.
4. O. Madayev. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent "Mumtoz so'z" 2010
5. E.M. Razbayeva, X.A. Axmedova "Nutq o'stirish metodikasi" Toshkent 1978